

PAPER

IS'HOQXON TO'RA IBRATNING "TARIXI FARG'ONA" ASARI, ASARDA KELITIRILGAN SHE'RIY PARCHALAR NAMUNALARI

Robiyaxon Sobitova Salohiddin qizi¹, *

¹Qo'qon Davlat Universiteti, iqtidorli talaba

* sobitova@gmail.com

Abstract

Maqolada Is'hoqxon To'ra Ibratning hayoti va faoliyati, "Tarixi Farg'ona" asari, asarning yaratilish sabablari yuzasidan ayrim mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, ushbu asarda keltirilgan she'riy parchalarning qaysi janrga mansubligi, asarda kelish o'rni va g'oyasi haqida ma'lumotlar berilgan. Marsiya, ta'rix kabi janrlarga alohida to'xtalib o'tilgan.

Key words: Is'hoqxon To'ra Ibrat, "Tarixi Farg'ona", she'riy parcha, lirika, nasihat, marsiya, ta'rix.

KIRISH

XX asr o'zbek ziyolilari orasida o'zining milliy-ozodlik yo'lidagi harakatlari bilan alohida o'ringa ega bo'lgan ma'rifatparvar adib Is'hoqxon To'ra Ibrat shoir, yozuvchi, tilshunos, tarixshunos olim, jadid maktabdori, ilk o'zbek matbuotchilaridan biri sifatida o'zbek adabiy merosiga munosib hissasini qo'shgan.

"Tarixi Farg'ona" 1916-yil - O'rta Osiyo tarixiga bag'ishlangan muallifning eng yirik va keng qamrovli asardir. Bu tarixiy asarda asosan o'zbek davlatchiligi rivojining oqsagan bosqichi, ya'ni xonliklarning tanazzulga yuz tutishi, rus bosqinchiligi kulfatlari keng tasvirlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Muallifning asarni yozishda o'z ona yurti tarixini to'g'riligicha yoritib berish, insonlarga hech bo'lmaganda tug'ilgan yerining tarixini bilish kerakligini ta'kidlash, Farg'ona iqlimi, Namangan, Andijon, Marg'ilon, Qo'qon shaharlarining vujudga kelish jarayonlarini, Qo'qon xonlari sulolasi, Norbo'taxon, Olimxon, Umarxon, Muhammadalixondan tortib Xudoyorxon, Fo'lodxon ibn Murodxongacha bo'lgan xonlar faoliyati, ularning tutgan siyosati, xalqqa munosabati kabi masalalarini, shuningdek, ushbu davr voqeligini o'quvchiga batafsil bayon etish kabi g'oyalarni ilgari suradi va "Tarixi Farg'ona" asarining yozilish

sabablarini quyidagicha izohlaydi:

Barcha olamlarni to'liq ko'rib chiqish va kezib chiqish bir bandaga nasib bo'ladigan va mumkin bo'lgan ish emas. Shu bois Qur'onda aytilganidek: «Nam va quruq (ya'ni, har qanday narsa) ochiq-ravshan kitobda bitilgandir».

Xulosa qilib aytganda, inson hech bo'lmasa bashariyat tarixidan bir oz bo'lsa ham bilishi lozim. Eng kamida, odam o'z yurtining tarixini bilishi kerak. Agar bilmasa, tafsir va hadislar hamda tarix kitoblarida bu haqda ochiq-ravshan ma'lumotlar bor: ko'rish va bilish ilmga asoslangan.

Shu sababli, men Farg'ona ahli sifatida o'z yurtim va iqlimimning tarixini yozishga qaror qildim. Kim bir mo'minning qadr-qimmatini tiklasa, go'yo uni hayotga qaytargan bo'ladi, degan hadisga amal qilib, tarixiy voqealarni jamlab, xalq uchun yodgorlik sifatida qoldirdim. Shuningdek, bu kitob siyosiy jihatdan ham muhim bo'lib, tushunarli tilda yozilgan va kerakli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Shu sababdan umrimning bir qismini tarixlarni o'rganishga bag'ishladim va mana shu bosqichga yetdim.

NATIJALAR

Shuningdek, "Tarixi Farg'ona" asarida lirik janrlar ham uchraydi. Ular tarkibidan qasida, marsiya, ta'rix(yodnoma), nasihat va ayrim to'rtliklar o'rin olgan. Asarda asosiy uchta she'riy janrlar

namunasi ko'zga tashlanadi:

1. Xotifning Umarxonning vafoti va Muhammadalixonning taxtga o'tirish tarixi haqidagi marsiya-ta'rix;
2. Buxoro amiri Nasrulloxonning Qo'qonni egallashi va Muhammadalixon va uning yaqin qarindoshlarining barchasini qatl etishi sababli Fitrat tomonidan forsiyda yozilgan ta'rix;
3. Shavqiyning Mallaxonning ukasi Xudoyorga qilgan nasihatini she'riy shaklda yozgan nasihati keltiriladi.

Marsiya (marsiya) — marsiya(ot)

Biror shaxsning vafoti munosabati bilan uning xotirasiga bag'ishlab yozilgan motam she'ri; Sharq she'riyatidagi adabiy janrlardan biri.

Biz o'lim va g'amginlikning marsiyasini emas, hayot qo'shig'ini kuylashimiz kerak! Uyg'un, Hayot qo'shig'i.

- 1) Yaqin va O'rta Sharq poeziyasida adabiy janrlardan biri;
- 2) Biror mashhur kishi yoki kekso oila a'zosi vafoti munosabati bilan g'am-alam va hasratni ifodalaydigan xalq og'zaki poetik va musiqa ijodiyotining aza-motam janri.

Marsiya qo'shiq yoki ashula turi sifatida dafn marosimida hayotdan ko'z yumgan kishining yaxshi hislatlari, ish faoliyatlari, qarindoshlik aloqalari esga olinib erkaklar tomonidan jo'rsiz rechitativ yoki kuychan, og'ir, mungli ohanglarda aytiladi. Marsiyada xalq so'zlari, g'azal, ruboiy, muhammas va boshqa asosida shaxs boshiga tushgan kulfat, yaqin kishidan judo bo'lish qismati aks etadi.

Ta'rix (arab. — yuz bergan) — mumtoz adabiyotda mashhur kishilarning tug'ilishi va vafoti, turli binoinshootlarning qurilishi, kitoblar ta'lifi va boshqa muhim voqea-hodisalar vaqtini anglatuvchi san'at. Ta'rix ko'pincha u yoki bu mashhur shaxsning vafoti munosabati bilan yozilgan. Ta'rixda qo'llangan so'z va iboralar, ularni tashkil etgan arab harflarining abjad raqami bilan qo'shib hisoblanganda, ma'lum bir sana kelib chiqadi. Ta'rix faqat mustaqil yozilmay, ba'zi bir asarlarning ichida ham keladi.

MUHOKAMA

Quyida asarga kiritilgan Umarxon saroyida ijod qilgan shoirlardan biri Xotifning Umarxonning vafoti va Muhammadalixonning taxtga o'tirishi sababidan yozilgan 13 baytdan tarkib topgan marsiya-ta'rixini keltirib o'tilgan:

*Xusravi anjum sipohi man, ki nuri hukmi,
Bud chun xurshidi davru dar mamolik komron.
Dast dodgar az og'ushi arusoni chaman,
Kard xoliy to nihad bor dush huroni jinon.
Shohidi ayyom bahri motamash boloyi ham,
Jomai niliy ba do'sh afkand bar nuh osmon.
On suxansanji, ki azhon dosht la'lash ihtiroz,
Gashta ast imro'z xoki tiyraash muhri dahon.
Halqai chashmash, ki az ko'hl ul-javohir or dosht,
Gasht az dasti qazo xoki siyahiro ravon.
Bar sarash vay afsari zar bud chatr sarvari,
In zamonash xok bar farq ast xeshtash soyabon.
Dog' shav, ey tab'i savdo, besha dar bozori fikr,
Ba qalam chand ast ajnosi ma'oni az do'kon.
Ba'd az in xun kard, ey andishai ma'ni barast,
Fursati mazmun guzashtu xatm shud davri bayon.
Nest jo'z in ma'niyi rangin, ki oxir gasht xun,
Inki ashki so'rx mebin zi chashmi mo ravon.
Mahfili fazl az bayonash sad shabiston nur dosht,
Shud xamush on sham'i nuri o'z-mo shud nurfishon.
Shukri o' chun diyda pushid az nazargohi vujud,
Nuri chashmash chun, nigah bolid dar chashmi jahon.
Bahri favti shoh nisfi xon hashmat dastgoh,
Dosht Xotif sayri ta'rix ba tab'i nuktadon.
Gasht mashhud zamirash in ki bo fanni neku,*

«Shah Umar az taxt raft joyi o' bigrift Xon».

Umarxon vafotidan keyin o'n besh yoshida taxtga o'tirgan Muhammadalixonni xalq ezgulik va adolat sohibi deb ulug'laydi, u ko'plab yurishlarda, fathlarda ishtirok etadi va "Goziy" nomini oladi. Xonliklar o'rtasidagi ma'lum siyosiy vaziyatlarga ko'ra Buxoro amiri Nasrulloxon Qo'qonga yurish qilib, Madalixonni yengadi va barcha qarindosh-urug'lari bilan qatl qilib yuboradi.

Shundan so'ng amir Muhammad Alixonning o'g'li Muhammad Amin, rafiqasi va barcha yaqinlarini ham qatl qilishga buyruq berdi. Birinchi bo'lib Muhammad Alixon o'ldirildi. Keyin yosh o'g'li Muhammad Aminni so'ydilar. Shunda bolaning onasi chidab turolmay, o'g'luga tikilib yig'lab turdi. U amirga qarab shunday la'nat aytdi:

"Ey zolim! O'g'limning nima aybi bor edi? Qizil qonga belandik, sening jazosiz qolishing mumkin emas! Xudoning huzurida sening ustingdan da'vo qilaman! Xonadoning vayron bo'lsin, o'zing ham qizil qonga belanib, o'zingdan ayrilgin!" Shundan keyin barcha qarindoshlari ham qatl qilindi. Bu fojia haqida ko'plab shoirlar marsiyalar bitgan.

"Tarixi Farg'ona" asarida muallif Fitratning 9 baytlik forschada yozilgan ta'rixini keltirib o'tadi:

*Hast ravshan ba nazdi o' qobil,
Ki darin xobgohi vayrona.
Natavon zistan kase jovid,
Xoh nazdik, xoh begona.*

Shud Muhammad Ali poknajo, Xoni g'oziy, amiri Farg'ona.

*Az faroxiy ba davri o' gashti,
Muflison bar rumumi shohona.*

*Baski dar sar havoyi ishq dosht,
Bigzaronid umr mastona.*

*Sadafi mulki toj dorio,
Hamchu o' kas nadid durdona.*

Marqadash pur zi rahmati Haq bod, Anzalallohu fiyhi g'ufirona.

*Shab, ki ta'rix i favti on shahro,
Xost Fitrat zi tab'i farzona*

*Az sari hush go'ft, ki: «Kunun nest,
Farahe dar diyori Farg'ona».*

Navbatdagi lirik namuna sifatida Shavqiyning Mallaxonning ukasi Xudoyorxoniga qilgan nasihatini she'rga solib, nasihat yozgani keltiriladi. She'riy nasihat didaktik poeziya janriga kiradi. Bu janrning asosiy xususiyati – o'quvchiga axloqiy, ma'naviy, tarbiyaviy g'oyalarni yetkazishdir. She'riy nasihatlar odatda pand-nasihat, hikmat, masal, majoz yoki lirikaning istalgan boshqa bir turi orqali ifodalanadi.

Bu nasihatning aytilish sababi shunday:

Sheralixon taxtga chiqqanidan keyingi o'n besh yil ichida qirg'izlar, qipchoqlar, sardorlar va o'zbek zodagonlari fuqarolar ustidan haddan tashqari zulm o'tkazishdi. Xonlarni qanday qatl etishgani ko'rinib turganidek, oddiy xalq bundan ham ko'proq aziyat chekkan edi. Shu sababdan Musulmonquliga qarshi isyon boshlashga qaror qilishdi. Bu isyonning sababi shuki, Toshkentda atoliqning urushiga borilganida kelishmovchilik chiqdi. Xo'qandliklar Toshkentga kirishmoqchi bo'ldi, lekin Musulmonquli Chirchiq bo'yida qo'nishni ma'qul ko'rdi. U xonga:

"Xon, sen mening maslahatlarimga quloq solmading, agar men tomondan bo'lsang, qayt!"

deb buyurdi va orqaga qaytdi. Ammo uning ortidan hech kim ergashmadi. Xudoyorxonni Toshkentga olib borib, izzat-hurmat bilan taxtga o'tqazdilar va barcha unga bay'at berdi.

Musulmonquli esa tog'lardan oshib, Andijon viloyatidagi Bilqillama hududiga bordi va u yerdagi qipchoqlardan qo'shin tuzib, Xudoyorxoniga qarshi harakat boshladi. Xudoyorxon ham Xo'qand qo'shini bilan yurish qilib, Bilqillamada katta jang sodir bo'ldi. Dastlab Musulmonquli g'alaba qozondi, lekin keyin qo'shunlar ovqatlanishga tarqalib ketganida, Xudoyorxonning katta akasi Mallaxon jangchilarni ruhlantirib dedi:

”Ey musulmonlar! Xudoyor yosh, u Xo‘qand qal’asida o‘zini xavfsiz his qilyapti. Ammo biz bu jangda mag‘lub bo‘lsak, ertaga jasadlarimiz Xo‘qandning Chorsu bozorida osiladi. Kelinglar, bir urinish qilaylik, chunki jang maydonida halok bo‘lish, dushmanga asir bo‘lishdan afzaldir!”

Shundan so‘ng Xo‘qand qo‘shini och bo‘rilar kabi qipchoqlarga hujum qildi. Qipchoqlar vahimaga tushib, qochib ketishdi. Ko‘p asir va o‘ljalar qo‘lga tushdi. Musulmonquli o‘z tarafdorlari tomonidan ushlanib, dushmanlarga topshirildi. Uni darhol o‘ldirmay, temir qafasga solib Xo‘qandga olib kelishdi va shahar darvozasiga osib qo‘yishdi. Xalq uning oldin qilgan zulmlarini yodga olib, unga shunday tanbeh berishdi:

”Hoy, cho‘loq! Endi holing qanday? Odamlarni nohaq o‘ldirganing, Sarimsoqbekni qatl qilganing yodingdami? Endi nima deysan?”

Musulmonquli esa shunday javob berdi:

”Alhamdulillah, hali ham sizlardan baland turibman!”

Xudoyorxon hukmronligining dastlabki yillarida ulamolar va diniy yetakchilarni qatl ettirdi. Jumladan, Namangonlik shayxulislom, xalifa Safo eshon, domla Xolmuhammad, rais domla va mulla Xojamquli a‘lam ham shular jumlasidan edi. Bu zulmlarning natijasini Xudoyorxon o‘z hayotida ko‘rdi.

Xudoyorxon qipchoqlarga qarshi Bilqillama jangida g‘alaba qozongach, Xo‘qandga qaytdi. Mallaxon uni kutib olib, shunday dedi:

”Men taxtni egallash niyatida emasman. Mening maqsadim mamlakat barqarorligi va xavfsizligidir. Agar sen o‘yin-kulgu bilan mashg‘ul bo‘lib, ishni e‘tiborsiz qilsang, fuqarolar azob chekadi, dushmanlarga muhtoj bo‘lamiz, mamlakat qo‘ldan ketadi va bizdan boshqalar kuladi!”

Ulug‘ yosh og‘o erdilar Mallaxon,
Nasihat qilur erdilar har zamon.
Bu xon anga ko‘b g‘amni yer erdilar,
Fasih til bila gohi der erdilar.
— Uka, bu nasihatni dark aylagil,
Bu bachkana ishlarni tark aylagil.
Erur shah ishi elga damsozlik,
Munosib emas xonga sakbozlik.
Qayon bordi sandagi bu aqlu hush,
Yegay har iting kunda bir nimta go‘sh.
Taajjub sani elga bu qilmishing,
Munosibmu sanga bu qilgan ishing!
Necha safshikan er bahodir yigit,
Bular barcha och bo‘lsa, to‘q bo‘lsa it.
Yigit qadri it qadridin bo‘lsa kam,
Bo‘lurmu yana mundin ortuq alam.
Bu na xon ishidur, na qilganing,
Berib ot bahosin it olganing?!
Erur sipah qanoti yigit birla ot,
Agar xon esang qil oni ehtiyot!
Quloqg‘a nasihat durin taqmasang,
Yigitlarni ahvoliga boqmasang.
Nasihat sanga bo‘lmasa korgar,
Sani bu ishing barchamizga zarar.
Bu behuda ish xon ishidin emas,
Xushomad eli sanga bu so‘zni demas.
Qoshingga kelib bir necha ahli joh,
Bori o‘zlarin ko‘rsatur nekhoh.
O‘zini hiylalar birla aylab qarib,
Berib sanga har bir kuni yuz firib.
Sani bu maishatga mag‘rur etib,
Bori ajdahodek o‘zin zo‘r etib.
Hukumatga atrofodin qo‘l solib,
Ichib-yeb bori olg‘onga olib.
Bori hukm ishini qilib poymol,
Bularga g‘araz olsa berkitsalar mol.
Bo‘lubsan shikoru o‘yun birla g‘arq,

Bilib qilmading do‘stu dushmanni farq.

*Kishi jon chekib qilsa xizmat agar,
Ayarmu aningdin kishi molu zar.
Ko‘rub xizmat in‘omini qilmasang,
Chapon qadriga jonini ko‘rmasang,
Bilib san tutub zarfi aklingni keng,
Suv berganu ko‘za ushatganni teng.
Yetib kelsa boshingga dushmanagar,
Bu g‘ofil ishingdin yetushgay zarar.
Bo‘lub mastu behuda ish etmagil,
Xazina yig‘ib, oni berkitmagil.
Yig‘ilsa bisotingda az oncha mol,
Ani har zamon sarfi ilgingga ol!
Xazinangda mol o‘lsa ochgil ani,
Karam panjasi birla sochg‘il ani.
Yigitga ani o‘z qo‘ling birla ber,
Masaldur: «Yemas molni begona yer».
Kishi arzi bo‘lsa o‘z oldingda so‘r,
Har ishni o‘zing qil, ko‘zing birla ko‘r,
Bu yanglig‘ ishing bo‘lsa anjom qil,
Sipoh jabdug‘ini saranjom qil!
Bu yanglig‘ nasihat, bu yanglig‘ ramuz,
Necha desalar yoqmas erur bu so‘z!*

Shuningdek, asar davomida adib shoirlar va xonlar o‘rtasidagi nazmiy savol–javoblardan ayrim baytlarni ham keltirib o‘tadi:

Bir kuni Umarxonning saroyida shoirlar yig‘ilib, ma‘raka o‘tkazilayotgan edi. Saroyda xizmat qilayotgan to‘rt nafar mahram odob bilan tik turardi. Xon ularning chiroyli qiyofasi va odobini ko‘rib, Mavlono Fazliya yuzlanib:

— Bu go‘zal yuzli yigitlarga biror she‘r aytin, — dedi.

Mavlono Fazliy bir zum o‘ylab turdi-da, qarshisidagi to‘rt nafar xizmatkorning ismlariga qarab bir bayt o‘qidi. Xizmatkorlarning ismlari Zulfiqorxon, Sayfiddinxon, Sodiqxon va Qulmuhammadxon edi.

Fazliy daf‘atan:

Zulfiqorxon: Tilim go‘yo barahna Zulfiqori na‘ti Ahmaddur,
Sayfiddinxon: Kesarga rishtai botilni Sayfiddin mushaddaddur,
Sodiqxon: Yetushsa munisi Sodiq hama kozib bo‘lur barham,
Qulmuhammadxon: Hama olam umid etkuchi yaxshi Qulmuhammadur,
(Zulfiqorxon: Tilim xuddi yalang‘och Zulfiqor qilichi kabi, chunki u Ahmadning madhidir.

Sayfiddinxon: Botil rishtasini kesuvchi qilich Sayfiddindir.

Sodiqxon: Agar Sodiq do‘sti yetishsa, barcha g‘am-g‘ussa yo‘qolur.

Qulmuhammadxon: Hama olam umid bog‘laydigan yaxshi kishi Qulmuhammad bo‘lar.)

O‘rni kelganida o‘z so‘zlarining tasdig‘i sifatida ham she‘riy parchalarga murojaat qiladi. Jumladan, muallif asar yozishdan maqsadini bayon qilgan o‘rinda insonlarni ilmiy bo‘lishga chaqirib, shunday deydi:

Ilmsiz odam past, balki hayvonlardan ham yomon bo‘ladi. Zero, butun borliqni yaratgan Alloh taolo olamlarning mohiyatini tushunmaydigan, haqiqatni bilsa ham unga to‘liq e‘tiqod qilmaydigan, ilmdan bebahra va dangasa bo‘lgan odamni “gapiruvchi hayvon” deb ataydi. Ammo shunday bo‘lsa-da, u bu nom bilan faxrlanib yuradi. Istanbul shoirlaridan Ismoil Safo shunday deydi:

Nalar tahsil edar bir asr ichinda buzurgi odam,
Yozuqdur jahl ila kechmish o‘lan bir umr sad sola.

(Bir asr davomida buyuk odam nima ta‘lim olar?

Sharmandadir, agar bir umrni nodonlik bilan o‘tkazsa.)

Inson yuz yil umr ko‘rib, ilohiy yaratuvchining mo‘jizalarini va behisob mavjudotlarni kuzatmasdan, g‘aflat uyqusida go‘zal va xunuk narsalarni farqlay olmasdan o‘tib ketsa, bu aql egalari va dono kishilarga ayon va ma‘lumdirki, osmonda

va yer yuzida mavjud bo'lgan barcha xilma-xil yaratilmishlar Yaratganning «fa'olun lima yurid») irodasiga bog'liqdir. Shuningdek, dunyoning turli hududlaridagi maxluqlarning tabiati, harakati, havosi va muhitining mutanosibligi ham Yaratganning cheksiz qudratini ko'rsatib turadi.

Turkistonning Rossiya tomonidan mustamlakaga aylantirilishiga qaratilgan o'sha davrdagi voqealarning ayrimlarini keltirib, bu fikrlarni Ahmad Yassaviy hikmatlari asosida izohlab beradi:

Ko'p o'tmay, Rossiya qo'shinlari Turkistonga bostirib kirdi. Bu haqda Hazrati Sulton Xoja Ahmad Yassaviyning bashoratlari to'g'ri chiqdi. U bundan 800 yil avval shunday degan ekan:

Ming ikki yuz sakson birda o'rus kelgay,
Turkistonni atrofini qamsab olg'ay.

Bu bashorat hijriy 1281-yilda haqiqatga aylandi va Turkiston bilan Avliyoota Rossiya tasarrufiga o'tdi.

Is'hoqxon To'ra Ibrat asarning so'ngini ham she'riy yakun bilan tugallaydi.

*Keldi boshimga yaxshi bir ovon,
Mango taviq yaratib Subhon.
Erdi Farg'ona tarixi shug'lim,
Ta'lif ettim kelib mango davron.
Ismi tasnifiq'a bo'lub ta'rix,
Bekamu ko'st lafzi bu «Farg'on».*

Ya'ni:
*Baxtimga yaxshi davr keldi,
Subhon menga ilhom ato etdi.
Farg'ona tarixini yozish ishim edi,
Va nihoyat, zamon buning uchun qulay bo'ldi.
Bu asarga tarixiy nom berdim,
Va "Farg'ona" deb atadim.*

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Ibratning "Tarixi Farg'ona" asarida tarixiy voqealarni bayon etish jarayonida nasr bilan cheklanib qolmay, ba'zan lirik ifodalar, she'riy parchalar ham keltirib o'tiladi. Bu, ayniqsa, hukmdorlar — xonlar bilan bog'liq sahifalarda ko'proq kuzatiladi. O'sha davr adabiy muhitiga xos jihatlardan biri shundaki, shoirlar, adiblar saroy atrofida to'planib, hukmdorlar sha'niga turli janrlarda asarlar yaratganlar. Ular orasida qasida, marsiya, ta'rix, yodnoma kabi janrlar alohida o'rin egallaydi. Ushbu asarlarda shoirlar o'zlarining badiiy iste'dodi, so'z san'atiga bo'lgan mahoratini namoyon etganlar. Shu sababli ham bu she'riy asarlar orqali shoirlar xonlarning e'tiboriga tushib, ularning himoyasini topishga intilganlar.

Ibrat "Tarixi Farg'ona"da ana shu holatlarni, ya'ni shoirlar bilan hukmdorlar o'rtasidagi aloqani tasvirlar ekan, ayrim joylarda bevosita she'riy parchalarni keltirib, o'sha zamon badiiy tafakkurini ham yoritib beradi. Asarda shoirlar tomonidan xonlarga atab yozilgan qasida va marsiyalar, tarixiy voqealarni yodda saqlash uchun yozilgan ta'rixlar, shuningdek, hukmdorlarga ibrat bo'lishi uchun yozilgan nasihatnoma singari asarlar namunalari ham o'rin berilgan. Bu esa asarning nafaqat tarixiy, balki adabiy qiymatini ham oshiradi.

"Tarixi Farg'ona" asarida keltirilgan lirik janrlar:

Bundan tashqari, muallif fikrlarini asoslash, o'quvchiga kuchliroq ta'sir ko'rsatish, dalillarni isbotlashda ham she'riy ifodalarni, ko'pincha qisqa, ammo mazmunan chuqur bo'lgan bayt va ruboiylarni keltirgan. Bu uslub, ya'ni tarixiy matnga she'riy parchalarni qo'shish, o'quvchini nafaqat voqea-hodisalardan xabardor qiladi, balki o'sha davr badiiy-estetik qarashlari, shoirlarning ijtimoiy mavqei va adabiyotning ahamiyati haqida ham tushuncha beradi. Shu jihatdan "Tarixi Farg'ona" nafaqat tarixiy, balki adabiy manba sifatida ham qimmatli hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Is'hoqxon To'ra Ibrat, Tarixi Farg'ona. Toshkent: Ma'naviyat, 2005
2. Is'hoqxon To'ra Ibrat. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022
3. Jadidlar ilm-ma'rifat va ma'naviy merosining yoshlar ta'lim-tarbiyasidagi ahamiyati mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari Toshkent – 2020
4. Ibrat Siddiq, Ajziy, So'fizoda, Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma'naviyat, 1999
5. Is'hoqxon To'ra Ibrat, Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma'naviyat, 2005
6. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/milliy-uygonish/?lng=lat>
7. Begali Qosimov, Sharif Yusupov, Ulug'bek Dolimov, Shuhrat Rizaev, Sunnat Ahmedovning «Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti» kitobi. Toshkent, «Ma'naviyat» nashriyoti, 2004
8. Qambarova Dilso'z, Is'hoqxon To'ra Ibrat ilmiy merosi qisqacha tahlili, Entersianal journal of multipicplinary research and management studies 2025, fevral.

T/r	Janri	Muallifi	Sarlavhasi	Keltirilish o'rni
1	marsiya-ta'rix	Xotif	"Xusravi anjum sipohi man", deb boshlanuvchi marsiya-ta'rix	Umarxonning vafoti va Muhammadalixonning taxtga o'tirish tarixi haqida
2	ta'rix	Fitrat	"Hast ravshan ba nazdi o' qobil", deb boshlanuvchi ta'rix	Buxoro amiri Nasrulloxonning Qo'qonni egallashi, Muhammadalixon va uning yaqin qarindoshlarining barchasini qatl etishi sababidan
3	nasihat	Shavqiy	"Ulug' yosh og'o erdilar Mallaxon, Nasihat qilur erdilar har zamon", deb boshlanuvchi nasihat	Mallaxonning ukasi Xudoyorga qilgan nasihatini she'riy shakldagi ifodasi
4	bayt	Ismoil Safo	"Nalar tahsil edar bir asr ichinda buzurgi odam" deb boshlanuvchi bayt	Ibratning inson o'ziga berilgan umr davomida ilm o'rganishi kerakligi haqida keltirgan fikrlariga dalil sifatida berilgan
5	"Hikmat"dan	Ahmad Yassaviy	"Ming ikki yuz sakson birda o'rus kelgay" deb boshlanuvchi bayt	Muallif Rossiya qo'shinlarining Turkistonga bostirib kirish arafasidagi tarixni bayon qilishda ushbu baytdan foydalanadi